

ADABIYOT DARSLARIDA ABDULLA QAHHORNING “O’TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASINI O’RGANISH

Aliqulova Naima Xolbekovna

*O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi akademik litseyi oliy toifali
o’qituvchisi*

Annotatsiya: Maqola (dars ishlanmasi) orqali adabiyot darslarida A. Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” qissasini o’rganish yuzasidan shaxsiy tajribaga asoslangan uslubiy –amaliy loyiha taqdim etilgan. Unda yozuvchi uslubini qissa tahlili orqali ochib berish maqsad qilingan. O’quvchida badiiy tahlil qobiliyatini o’stirish, darsni qiziqarli va jonli tarzda tashkil etish uchun bir nechta interaktiv didaklik o’yinlar ham tavsiya etilgan.

Kalit so’zlar: Abdulla Qahhor, ijodiy fikrlash, “O’tmishdan ertaklar”, tahlil, avtobiografik asar, yozuvchi uslubi,didaktik o’yin.

Abdulla Qahhor ijodi bilan bog’liq mavzular umumta’lim maktablari va akademik litsey o’quv dasturlaridan o’rin olgan. Dars davomida o’quvchilarni ijodiy fikrlashga o’rgatish bosh maqsad sifatida qo’yiladi. Asosiy foydalilaniladigan manbalar ro’yxatiga adabiyot darsliklaridan tashqari “O’zbek adiblari” (S.Mirvaliyev. T: 2000), “Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati” (H.Homidiy va b. T: 1967), “Chorak asr hamnafas” (K.Qahhorova) xotiralar kitobi, O’. Hoshimovning “Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, turli adabiyotshunoslarning adib haqidagi maqolalarini kiritish mumkin. Shuningdek, A.Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” qissasi (T:2005-yil nashri) ham o’qituvchi stolida bo’ladi. Taqvimiy mavzular rejasи, darsning texnologik xaritasi va loyihasi, 1/1 hajmdagi devoriy gazeta qog’ози, turli rangdagi markerlar, mavzuga doir testlar, tarqatma materiallar, mavzuga xizmat qiluvchi boshqa manbalardan o’quv-ish qurollari о’rnida foydalilanadi. Darsdan ko’zlangan ilmiy maqsad quyidagicha:

o'quvchilarga A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asari yaratilish tarixi, qissaning adabiy-tarixiy qimmati, asarning XX asr o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, tarix va yozuvchi qarashlari mutanosibligi, avtobiografik asar xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Ko'zda tutilgan tarbiyaviy maqsad esa A.Qahhorning yirik yozuvchi sifatida milliy tafakkur rivojidagi o'rmini ochib berish, "O'tmishdan ertaklar" qissasi asosida tarix- inson- qadriyatlar – burch birligi mohiyatini tushuntirib, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish va baho berish ko'nikmasini shakllantirish.

Dastlab o'qituvchi quyidagi mazmunda kirish so'zi qiladi: sizga ma'lumki, ertak deganda xalq og'zaki ijodining uydirma va fantaziyalarga asoslangan janri tushuniladi. Qissani o'qib bildingizki, "O'tmishdan ertaklar" asari real tarixiy voqelikni qamrab oladi. Qissada 60 yoshni qoralagan yozuvchining dilidagi armonu iztiroblarga sababchi bo'lgan omillar tarixiy hikoyalar orqali jonlantirilgan. Siz o'tgan darsdagi ma'ruzadan, darsligingizdagi ma'lumotlardan A. Qahhorning qanday shaxsiyat egasi ekanligini bilib oldingiz. "O'tmishdan ertaklar" qissasini o'qish orqali esa "Abdulla Qahhor qanday ijodkor?" degan savolga javob topgan bo'lisingiz kerak

Asar yolg'iz bitta g'oya asosiga qurilgan: bir-birini ko'rolmaydigan, xurufot va bid'atga botgan millat hamisha boshqalar asoratiga mahkum, u hech qachon ro'shnolik ko'rmaydi. Ijtimoiy tengsizlik,adolatsizlik, qonunsizlik, jaholat avj olgan yurtda ma'rifat, ijtimoiyadolat uchun olib borilgan kurashlar ko'pincha ma'nisiz, behuda tus oladi. Asardagi Muhammadjon qori, Savriniso, Babar bilan bog'liq voqealarni eslang. Barchasiga sabab bitta – jaholat!

A. Qahhor ko'rgan-kechirganlarini ibrat sifatida yozib ketdi. Endi nima bo'lishi bizga bog'liq. Qissada yaqin o'tmishimiz qalamga olingan. U fojealarning ta'siri hali tarqab ulgurmagan. A. Qahhor kabilar aytib ketgan haqiqatlarga tik boqib, fojealardan saboq chiqarsakkina, ilm olishga befarq qaramay, idrok ko'zimizni kattaroq ochsakkina insonlik sha'nimizni yanada yuksakroq ko'tarishimiz mumkin. Ayniqsa bizning zimmamizdagi eng katta

burch mustaqilligimizni asrab qolish va kelajak avlodlarga fayzli bir Vatan qoldirishdir.

Ana endi stolim ustida turgan kartochkalar orqali “O’tmishdan ertaklar”qissasi voqealariga bir qur nazar solamiz. Kartochkalarda qissa qahramonlari nomi yozilgan. Men familiyasini o’qigan o’quvchilar chiqib o’zi tanlagan kartochkada ismi yozilgan qahramonga ta’rif beradi, uning asar voqealaridagi o’rnini belgilaydi. (Mashg’ulot shu tariqa davom ettiriladi, o’quvchilarning qissa bilan qanchalik tanishganligi aniqlanadi.)

So’ng o’quvchilarning fikrlash qobiliyatini o’stirishga mo’ljallangan navbatdagi mashg’ulotga o’tiladi.

- Qani , bolalar, endi **oqllovchilar** va **qoralovchilar** guruhiba bo’linamiz. Bunda asosiy e’tibor yozuvchi uslubi va nuqtayi nazariga qaratiladi.

“Abdulla Qahhor o’tmishni bo’yamasdan, rostgo’ylarcha yozgan va to’g’ri qilgan”, deb hisoblovchilar o’ng tomonga

“Yozuvchi juda bo’rttirib yuborgan, hayotdan fazilat axtarmagan, tarixni xolis yoritmagan, unig fikrlariga qo’shilolmayman”, deguvchilar chap tomonga o’tsin. Buning uchun sizga ikki daqiqa muhlat beraman.

(Darsning bu qismi munozara shaklida o’tadi. Bolalarga mustaqil fikr aytish va uni asoslash imkonи beriladi)

Bahs tugagach, fikrlar umumiylashtirilib, xulosa yasaladi va o’quvchilarga avtobiografik asar haqida nazariy ma’lumot beriladi:

“**Avtobiografiya**” yunoncha so’z bo’lib, “ o’z hayotimni yozaman” degan ma’noni bildiradi. Avtobiografik asar yozuvchining o’z shaxsiy hayoti bilan bog’langan voqealar asosida yaratgan badiiy asaridir. Bunday asarlar avtobiografik roman,qissa, esdaliklar va boshqa janrlar ko’rinishida vujudga keladi. O’zbek adabiyotida avtobiografik asarlarga misollar talaygina: G’ G’ulomning “Shum bola”, Oybekning “Bolalik”, A. Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” qissalari. Bunday asarlarda yozuvchining hayot yo’li zamonasining hayot sharoiti bilan chambarchas bog’liq holda yoritiladi.

Darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida doskaga yana devoriy gazeta qog'ozni osiladi. "O'tmishdan ertaklar" qissasi qahramonlari bilan bog'liq o'yin mashg'ulot o'tkaziladi. Bunda birinchi o'quvchi marker bilan doskaga osilgan qog'ozga qissadagi o'zi istagan birorta qahramonning nomini yozadi. Ikkinchi o'quvchi esa bu nom asnosida qissa voqealarini eslatib, o'sha obrazga o'z tavsifini beradi. Agarda u aytayotgan fikrlar kimdadir e'tiroz uyg'otsa munozaraga yo'l qo'yib beriladi. Doskaga chiqqan har bir o'quvchi qog'ozga bittadan asar qahramoni nomini yozib o'tiradi. Shu tariqa asar qahramonlariga xos jihatlar bir-bir ochila boradi. Mashg'ulot so'ngida A. Qahhorning obraz yaratish mahorati bilan bog'liq xulosalar o'rta ga tashlanadi va umumlashma fikr aytildi.

Dars so'ngida faol qatnashgan o'quvchilar baholanib, navbatdagi asar uyishi sifatida o'qishga beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbek adiblari" . - S.Mirvaliyev. T.: 2000.
2. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati". - H.Homidiy va b. - T.: 1967
3. "Chorak asr hamnafas" . - K.Qahhorova. T.:1986
4. "Abdulla Qahhorning urushdan keyingi ijodi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. - O'. Hoshimov. T.: 1981
5. "O'tmishdan ertaklar".Qissa. - A.Qahhor. T.:2005